

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JAMOAT JOYLARIDA BEZORILIK JINOYATLARINI OLDINI OLISH FOLIYATINING TASHKILIIY ASOSLARI

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti. E-mail:
anvartoshtemirov05031979@gmail.com.*

Inomaliyev Davron Nazirjon o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 318 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Maqolada IIO lari profilaktika inspektorlarining mayda bezorilik bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, uning oldini olish va sodir etilish sabab va sharoitlarini bartaraf etish borasidagi faoliyati tushunchasi, bugungi kundagi holati hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishda ushbu faoliyatning o'рни va ahamiyati, shuningdek uni takomillashtirish yo'nalishlari yuzasidan takliflar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *mayda bezorilik, jamoat tartibi, tajovuz, huquqbuzarlik, jinoyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ta'sir chorasi, ijtimoiy himoya, ruhiy ta'sir, jismoniy zo'rlik ishlatish, himoyalanish choralari.*

O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash jamiyatning asosiy maqsadi etib belgilandi. Ushbu maqsadni amalga oshirish hamda fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab fuqarolarning tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash maqsadida ichki ishlar organlarida tub islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2017 yil 10 apreldagi PF 5005-sonli farmoni qabul qilindi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik imkoniyatlari yaratildi. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar avvalo halqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida halqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi, ichki ishlar organlari o'z vaqtida ularni oldini olish va ularga barxam berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Profilaktika inspektorlari g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar haqida ish (o'qish) joyidagi ish beruvchini (ma'muriyatni), yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga esa ogohlantirish beradi. Sababi ushbu holatda sodir etilgan

huquqbuzarliklar sababi va shart-sharoitlari bevosita g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxs, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxsning o'qish, ish yoki yashash joyidan biridagi muhitga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) aloqador bo'lmasligi mumkin. Va aynan shuning uchun ham xabardor qilinuvchi g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxs, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan qo'l ostidagi xodim, nazoratidagi o'quvchi va mahalla fuqarosining jamoa muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Berilgan xabar asosida ular ichki imkoniyati yoki mehnat kelishuviga binoan shartnomani bekor qilishi, murabbiy biriktirishi yoki yakka tartibda tarbiyaviy ishlarni olib borishi yoki boshqa harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Shu bilan birga profilaktika (katta) inspektori xizmat faoliyatini olib borish jarayonida muayyan shaxsda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishining yoki muayyan huquqbuzarlik sodir etilishining sabablarini, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan korxona, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga taqdimnoma yuboradi.

Taqdimnomada esa tegishli davlat organiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlash-masiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga majburiyat yuklatilib huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilishlari talab etiladi. Chunki ushbu sabab va sharoitlar aynan ularning faoliyatidagi kamchiliklar, xatoliklar yoki e'tiborsizliklar deb baholanadi.

Profilaktika inspektori ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga yoki alohida turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishini taqozo etayotgan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaganda ularni bartaraf etish yuzasidan korxona, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hududiy ichki ishlar organi boshlig'i orqali, vazirliklar va qo'mitalarga esa Ichki ishlar vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritiladi.

Profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha taqdimnomani tayyorlab belgilangan tartibda tasdiqlash (imzolash) uchun ichki ishlar organi boshlig'iga taqdim etadi. Tasdiqlangan taqdimnomani kuzatuv xati bilan belgilangan joyga jo'natish choralarini ko'radi.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda, aynan vaziyatga ta'sir etuvchi ommilarni o'rganish davomida, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar, ma'muriy nazoratdagi shaxslar, profilaktik xisobda turuvchi shaxslar bo'yicha tegishli xujjatlarni rasmiylashtiradi. Misol uchun huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni profilaktika inspektori «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonun asosida yakka tartibdagi profilaktikaning turi xisoblangan rasmiy ogohlantirish orqali protsessual xujjatlarni rasmiylashtirib boradi.

Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ma'muriy huquqbuzarliklar,

ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish profilaktik xisobda va ijtimoiy jihatdan xavfli axvolda bo'lgan voyaga yetmanganlar va notinch oilalar bilan olib borilayotgan yakka tartibdagi profilaktik ishlari shuningdek tayanch punktlarida kitoblarni hamda xujjatlarni yuritish, majburiy davolashga yuborish, voyaga etmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam kursatish markazlariga joylashtirish, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish kabi ishlarning qonun xujjatlarida belgilangan talablar asosida yuritiladi. Shu asosida profilaktika inspektori xam protsessual xujjatlar rasmiylashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ichki ishlar organlarini takomillashtirish bo'yicha 2018-yil 10-aprelda "Ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligini tubdan oshirish jamoat tartibini saqlash fuqarolarning xuquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning masulyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005 son farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon jamiyatda barqarorlik tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish inson xuquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishni ta'minlash mamlakatni ijtimoiy va iktisodiy jihatdan yanada jivojlantirish axoli farovonligini yuksaltirish xuquqiy demokratik davlatni qurish bo'yicha amlga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadarga yerishishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning xuquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish jamoat tartibni saqlash shaxs jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktikasi buyicha respublikada yaxlit xuquqiy tizim yaratilgan bo'lib unda ichki ishlar organari muhim orin egallaydi, aniqsa ichki ishlar organlarining mahalarda jamoat tartibini saqlash fuqarolar xavfsizligini ta'minlash huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash kurashish uchun tashkil etilgan kuyi bo'g'inni rivojlantirish va mustaxkamlash bo'yicha salmokli ishlar kilindi.

Shu bilan birga keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida tuplanib kolgan jiddiy kamchilik va muammolar ushbu vazifalarni samarali bajarishda tusik bo'lmoqda. Ushbu muammolar tukista vauni bartaraf etish uchun unta ustivor yo'nalishlar belgilangan. Ushbu farmon ichki ishlar organlari faoliyatida va shu juladan, profilaktika inspektorlarining jamoat tartibni saqlash va jinoyatlarni oldini olishda keng ko'lamli xuquqlar imtiyozlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni va ushbu farmonga muofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5050-son qarori qabul qilindi, Ushbu normativ xujjatlar asosida: tayanch punktlari "maxalla xuquq tartibot maskani" ga aylantirildi va "Mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risida" nizom tasdiqlandi.

Bugungi kunda, Profilaktika inspektorining kriminogen vaziyatni tahlil etish faoliyatini o'rganish va baxolashda shubxasiz bezorilik huquqbuzarligi sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat organlari va jamoatchilik tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasini belgilab beradi.

Har qanday jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurash, uning sabab va sharoitlarini bartaraf qilish eng asosiy dolzarb muommalardan biridir.

Mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Profilaktika inspektorlari lavozimiga tashkilotchilik, tashabbuskorlik, keng fikrlilik kobiliyatiga ega, huquqshunos va yeng asosiysi pedagogik-psixiologik bilimlarga ega hayotiy va mahalliy tajribasi yuqori bo'lgan xodimlarni ishga tayyorlash;

2. Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xamda milliy gvardiya bilan xamkorlikda kriminogen xududlarda doimiy nazoratni tashkil qilish. Xuquqbuzarliklar Profilaktikasida faol hamkorlik qiladigan, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini taminlashda doimiy ravishda ishtirok etuvchi fyqarolarni moddiy rag'banlantirishni keng yo'lga ko'yish, kompleks chora tadbirlarini amalga oshirish.

3. Ma'muriy hududda kriminogen vaziyat yuqori bo'lgan joylarda va aholi gavjum bo'lib to'planadigan jamoat joylarda, IIO lari navbatchilik qismiga bog'langan "SOS" chaqiruv signalini ishga tushirish xamda, kuzatuv kameralarini o'rnatish va uni tayanch punktida yangidan boshkaruv bazasini shakllantirilishi

4. Xudud profilaktika inspektorlarini faoliyati fuqarolar tomonidan turli xil tuxmatlarga va noroziliklarga sabab bulmasligi uchun profilaktika inspektorlarini "BODI KAMERALAR" bilan taminlash.

5. Jamoat tartibini buzishga moyil shaxslar ruyxati maxalla kesimida shakllantirilib, ular bilan aloxida profilaktik tadbirlarni tashkillashtirish.

6. Mamuriy xududda joylashgan sirtli ichimlik dukonlari, kafe, barlar, xamda turli xil kungilochar maskanlarning xududida sodir yetilgan bezorilik xarakatlari uchun usha tadbirkor yoki yuridik shaxsga xam qonunda javobgarlikni belgilovchi xuquqiy norma kiritish (ushbu chora tadbirkor yoki yuridik shaxsning yetiborsizligi va loqaydligini oldini oladi).

7. Mamuriy xudud profilaktika inspektorlarini diniy bilimlarini oshirish va xududning kriminogen xususiyatini va madaniyatini inobatga olgan xolda xalq bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida xaftada bir marta, xududiy diniy ulamolar bilan suxbat utkazishni tashkillashtirish:

8. Chet davlatlarga ishlash, uqish, davolanish va boshqa maqsadlarda chiqayotgan fuqarolarni nazorat kilish va maxallabay tizimida ruyxatini shakllantirishni osonlashtirish xamda xududda profilaktika inspektorini tasir kuchini oshiirish

maqsadida: fuqarolarni boshqa davlatga chiqib ketishi uchun, profilaktika inspektorining yozma malumotnomasi zarurligi belgilab kuyilishi:

9. O'zbekiston Respublikasi Mamuriy Javobgarlik tug'risidagi kodeksining 183-moddasi 2- qismini "xuddi shunday xarakatlar ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish maqsadida sodir yetilgan bulsa" kabi band bilan tuldurish, ushbu qismga nisbatan yesa og'irroq jazo chorasini qullash.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «bugungi kunda eng katta masala, bu – ichki ishlar tizimining quyi bo'g'inini mustahkamlashdan iborat». «Hozirgi kunda ichki ishlar organlari idoralarining o'ta markazlashgan holda joylashuvi ularning o'z vazifalarini samarali hal qilish imkonini bermayapti. Bu bir tomondan, jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi pasayishiga olib kelayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, aholiga o'z muammosini hal qilishda noqulaylik tug'dirmoqda. Biz ichki ishlar organlari xodimlarini halqqa yanada yaqinroq qilish maqsadida xodimlarning asosiy qismi bevosita joylarda, kerak bo'lsa, har bir sektor hududida xizmat olib borishini ta'minlashimiz kerak».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.

10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.